

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

JABBOROV ALIBEK BOTIRQUL O'G'LI

**DVB-T2 STANDARTIGA EGA RAQAMLI TELEVISION SIGNALLARNI
OPTIMAL QABUL QILISHNI BAHOLASH VA
HALAQITBARDOSHLIKNI OSHIRISH USHLUBLARINI TADQIQ ETISH**

**05.04.02 – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va
qurilmalari. Mobil, optik tolali aloqa tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent-2024

**Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
technical sciences**

Jabborov Alibek Botirqul o'g'li

DVB-T2 standartiga ega raqamli televizion signallarni optimal qabul qilishni
baholash va halaqitbardoshlikni oshirish uslublarini tadqiq etish..... 3

Жабборов Алибек Ботиркул угли

Исследование методов повышения помехоустойчивости и оценка
оптимального приема цифровых телевизионных сигналов стандарта
DVB-T2..... 19

Jabborov Alibek Botirqul ugli

Investigation of methods for improving noise immunity and evaluation of the
optimal reception of digital television signals of the DVB-T2 standard..... 37

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works 41

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI**

JABBOROV ALIBEK BOTIRQUL O'G'LI

**DVB-T2 STANDARTIGA EGA RAQAMLI TELEVISION SIGNALLARNI
OPTIMAL QABUL QILISHNI BAHOLASH VA
HALAQITBARDOSHLIKNI OSHIRISH USLUBLARINI TADQIQ ETISH**

**05.04.02 – Radiotexnika, radionavigatsiya, radiolokatsiya va televideniye tizimlari va
qurilmalari. Mobil, optik tolali aloqa tizimlari**

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.4.PhD/T1446 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan. Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yarmuxamedov Alisher Agbarovich

texnika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Siddikov Ilxomjon Xakimovich

texnika fanlari doktori, professor

Nosirov Xabibullo Xikmatillo o'g'li

texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

va aloqa harbiy instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil "___" _____ soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100084, Toshkent shahri, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-65-44; faks: (99871) 238-65-52; e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertatsiya bilan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100084, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 108-uy. Tel.: (+99871) 238-65-44).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "___" _____ kuni tarqatildi.
(2024 yil "___" _____ dagi №___ raqamli reestr bayonnomasi).

B. Sh. Maxkamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

M. S. Saitkamolov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

D. Ya. Irgasheva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda Yer usti raqamli teleeshittirish signallarini optimal qabul qilishda halaqitbardoshlikni oshirish uslublarini ta'minlash, raqamli televideniye signallarining qamrov zonasini oshirish va raqamli teleeshittirish tizimini takomillashtirish, raqamli ishlov berish hamda tizimning sifatli texnik ko'rsatkichlarini yaxshilash masalalariga alohida ahamiyat berilmoqda. Hozirgi davrda aholi zich joylashgan hududlarda ko'p qavatli binolarning mavjudligi, tabiiy va sun'iy halaqitlar ta'siri hamda Yer reliefi turli xil bo'lganligi sababli iste'molchilarni sifatli televizion signallar bilan ta'minlash ehtiyoji ortib borishiga olib kelmoqda, bu esa yuqori sifatli halaqitbardosh televizion tizimni takomillashtirishga bo'lgan talabni ortib borishini ko'rsatmoqda. Shu bois dunyoning yetakchi AQSh, Germaniya, Shvetsariya Buyuk Britaniya, Avstriya, Kanada, Xitoy, Yaponiya, Hindiston, Janubiy Koreya va Rossiya Federatsiyasi kabi davlatlarida Yer usti raqamli teleeshittirish signallarini optimal halaqitbardoshli qabul qilish, tizim halaqitbardoshligini oshirish uslublarini ta'minlash hamda yuqori sifatli texnik ko'rsatkichlarga ega tizimni yaratish muhim hisoblanmoqda.

Jahonda raqamli teleeshittirish signallarini optimal qabul qilishda halaqitbardoshlikni oshirish uslublarini ta'minlash, raqamli televideniye signallarining qamrov zonasini oshirish, raqamli ishlov berish, tizimning sifatli texnik ko'rsatkichlarini yaxshilash, uslublari, algoritmlarini, modellarini hamda dasturiy vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan bir qancha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarning katta qismi Yer usti raqamli teleeshittirish signallarini optimal qabul qilishda halaqitbardoshli kodlash, modulyatsiyalash, demodulyatsiyalash uslublarini takomillashtirishga qaratilgan. Shu jihatdan Yer usti raqamli teleeshittirish signallarini optimal halaqitbardoshli qabul qilish, tizim halaqitbardoshligini oshirish uslublarini ta'minlash, raqamli televideniye signallarining qamrov zonasini oshirish va ushbu tizim uchun algoritmlarini, modellarini, dasturiy vositalarini ishlab chiqish hamda optimal halaqitbardoshli tizimni yaratish kabi ko'plab muammolarni yechishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda Yer usti raqamli teleeshittirish signallarini optimal qabul qilishda halaqitbardoshlikni oshirish uslublarini ta'minlash, raqamli televideniye signallarining qamrov zonasini oshirishda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Raqamli O'zbekiston – 2030 strategiyasida “iste'molchilarga televizion signalni uzatish, Yer usti televizion eshittirish, kabel televideniyesi, IP-televideniye, ma'lumotlar uzatish tarmoqlari, mobil aloqa, Internet texnologiyalaridan foydalangan holda teleradioeshittirish, televizion va radio xizmatlarining barcha turlarini to'liq qamrab olgan holda raqamli eshittirishni takomillashtirish” raqamli rivojlanishning strategik maqsadlari va ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqsadlarga erishishda televizion signallarni optimal qabul qilish, ishonchli qamrov zonasini oshirish, televizion signallarni halaqitbardoshligini oshirish uslublarini takomillashtirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 - yil 5-oktabr PF-6079 son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-iyuldagi 29/789 son “Raqamli teleeshittirishlarga o‘tish va Yer usti analog teleeshittirishlarni to‘xtatishga doir amalga oshiriladigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-avgustdagi PQ-3245 son “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida loyiha boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-aprel PQ-4699 son “Raqamli Iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot Strategiyasi to‘g‘risida”gi, Qarorlari va Respublikada so‘nggi yillarda ushbu sohada qabul qilingan boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV “Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Telekommunikatsiya va raqamli aloqa tizimlari sohasida Yer usti raqamli teleeshittirish signallarini optimal halaqitbardoshli qabul qilish, tizim halaqitbardoshligini oshirish uslublarini ta‘minlash, raqamli televideniye signallarining qamrov zonasini oshirish va ushbu tizim uchun algoritmlarini, modellarini, dasturiy vositalarini ishlab chiqish hamda optimal halaqitbardoshli tizimni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha keng qamrovli tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqot bo‘yicha Web of Science, Elsevier, Springer, Association for Computing Machinery, IEEE Xplore, Cyberleninka nashriyotlarining ma‘lumotlar bazasiga kiritilgan, asosan, IEEE Xplore and Scopus ro‘yxatidagi ilmiy jurnallarda oxirgi yillarda chop etilgan maqolalar o‘rganildi.

Bu sohada bir qator xorijiy olimlar, jumladan, V. A. Anjina, N.V. Nikolaychuk, S.V.Dvornikov, Y.V. Lebeda, Chan Van Ngia, G.V.Kulikov, Andrey Mixaylov, A.S. Ovsyannikova, A.A. Levoshko va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan.

Shuningdek, Respublikamizda bu yo‘nalishda M.M.Muxiddinov, A.M. Nazarov, X.X.Madaminov, A.Sh.Shaxobiddinov, M.A. Djabborova, B.K. Abidov, I.A.Gavrilov, E.B.Tashmanov, T.G.Raximov, X.S.Soatov hamda boshqa olim va tadqiqotchilar ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Dissertatsiyada ko‘rib chiqilayotgan muammolarga oid olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Yer usti raqamli teleeshittirish signallarini optimal halaqitbardoshli qabul qilishda, halaqitbardoshli kodlash va dekodlash uslublari, raqamli modulyatsiya va demodulyatsiya rejimlari, raqamli televideniye signallarining yetarli darajada qamrov zonasini oshirish va raqamli teleeshittirish

tizimini takomillashtirish, tizimning sifatli texnik ko'rsatkichlarini yaxshilash, algoritmlari, uslublari tizimli ravishda va yetarli darajada o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 609715-EPP-1-2019-1-UZ-EPPKA2-CBHE-JP "SPACE.COM" "Kosmik tizimlar va aloqa muhandisligi bo'yicha yangi o'quv dasturi (New study program in space systems and communications engineering)" (2019-2023 yy.) mavzusidagi xalqaro loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. DVB-T2 standartiga ega raqamli televizion signallarni optimal qabul qilishni baholash va halaqitbardoshlikni oshirish uslublari tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Yer usti raqamli teleeshittirish signallarini halaqitbardoshligini oshirish uslublari, optimal qabul qilish uslublari va raqamli televideniye signallarining qamrov zonasini oshirish bo'yicha mavjud xorijiy va mahalliy tadqiqotlarni tahlil qilish;

teleuzatish stansiyalarining ishonchli qamrov hududlarini sifatli radiosignal bilan ta'minlashda, Yerni relefi va ob - havoning o'zgarishini e'tiborga olib, optimal texnik parametrlarni (uzatgich quvvati, antenaning kuchaytirish koeffitsiyenti, uzatish antenasining o'rnatish balandligi) tanlash tamoyilini ishlab chiqish;

raqamli televizion tizimda Xemming, Rid-Solomon, Bouz-Choudxuri Xokvingem va LDPC kodlari asosida imitatsion model yaratish va koder, aloqa kanali, dekoderlarning parametrlarini rostdash orqali halaqitbardoshlikni oshirish uslubini takomillashtirish;

raqamli televizion tizimda Gauss, Rays va Reley kanallarini tanlash orqali halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi yangi Bouz-Choudxuri-Xokvingem dekoder algoritmini ishlab chiqish;

eksperimental o'lchovlarga asoslanib, optimal qabul qilishni baholash orqali raqamli televizion tizimining halaqitbardoshli qabuliga erishishda, QPSK va QAM demodulyatorlarning sifat ko'rsatkichli parametrlarini (spektri, yulduzli diagrammalari, signal sathi, signal/shovqin nisbati E_b/N_0 , uzatuvchi qurilmaning quvvati, kanal chastotasi va modulyatsiya turi) tanlash tamoyilini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Yer usti raqamli teleeshittirish tizimi olingan.

Tadqiqotning predmetini raqamli televizion signallarni optimal qabul qilishni baholash va halaqitbardoshlikni oshirish muammolarini samarali hal qilishda halaqitbardoshli kodlash uslublari, dekodlash algoritmi, raqamli demodulyatsiyalar va dasturiy ta'minotlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida induksiya usullari, ehtimollar nazariyasi, matematik tahlil, algoritmlash, modellash, taqqoslash, kompyuter texnologiyalaridan foydalanish yo'li bilan imitatsion modelashtirish usullari

hamda desimetrli diapazonda elektromagnit muhitni tadqiq qilishning nazariy va eksperimental usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

teleuzatish stansiyalarining ishonchli qamrov hududlarini sifatli radiosignal bilan ta'minlashda, Yerni relefi va ob - havoning o'zgarishini e'tiborga olib, optimal texnik parametrlarni (uzatgich quvvati, antenaning kuchaytirish koeffitsiyenti, uzatish antenasi o'rnatish balandligi) tanlash tamoyili ishlab chiqilgan;

raqamli televizion tizimda Xemming, Rid-Solomon, Bouz-Choudxuri-Xokvingem va LDPC kodlari asosida imitatsion model yaratilgan va koder, aloqa kanali, dekoderlarning parametrlarini rostdash orqali halaqitbardoshlikni oshirish uslubi takomillashtirilgan;

raqamli televizion tizimda Gauss, Rays va Reley kanallarini tanlash orqali halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi yangi Bouz-Choudxuri-Xokvingem dekoder algoritmi ishlab chiqilgan;

eksperimental o'lchovlarga asoslanib, optimal qabul qilishni baholash orqali raqamli televizion tizimining halaqitbardoshli qabuliga erishishda, QPSK va QAM demodulyatorlarning sifat ko'rsatkichli parametrlarini (spektri, yulduzli diagrammalari, signal sathi, signal/shovqin nisbati E_b/N_0 , uzatuvchi qurilmaning quvvati, kanal chastotasi va modulyatsiya turi) tanlash tamoyili ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

Okamura - Xata va Vvedenskiy modellari asosida ishonchli qamrov zonalarini sifatli signal bilan ta'minlashda optimal texnik parametrlarni tanlash imkoniyatini beruvchi dasturiy ta'minot ishlab chiqilgan;

raqamli televizion tizimda Xemming, Rid-Solomon, Bouz-Choudxuri-Xokvingem va LDPC kodlar asosida halaqitbardoshlikni oshiruvchi modellarning dasturiy ta'minotlari ishlab chiqilgan;

QPSK va QAM demodulyatorlar asosida halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi modellarning dasturiy ta'minotlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi taklif etilayotgan uslublar va algoritmlarni boshqa zamonaviy uslublar bilan miqdoriy va sifat jihatidan taqqoslash orqali aniq va samarali natijalarga erishilganligi hamda mos guvohnomalar va joriy qilinganlik to'g'risidagi dalolatnomalar bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati teleuzatish stantsiyalarining ishonchli qamrov hududlarini sifatli signal bilan ta'minlashda optimal texnik parametrlarni tanlash imkonini taqdim etuvchi analitik ifoda, raqamli televizion tizimda Xemming, Rid-Solomon, Bouz-Choudxuri-Xokvingem va LDPC kodlar modeli, halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi yangi Bouz-Choudxuri-Xokvingem dekoder algoritmi hamda halaqitbardoshlik kodlarning parametrlarini rostdash yordamida halaqitbardoshlikni oshirish uslubi takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati Okamura - Xata va Vvedenskiy modellarining dasturiy ta'minotlari asosida ishonchli qamrov zonalarini sifatli signal bilan ta'minlashda optimal texnik parametrlarni tanlash imkoniyatini beruvchi hamda raqamli televizion tizimda Xemming, Rid-Solomon, Bouz-Choudxuri-Xokvingem, LDPC kodlar, QPSK, QAM demodulyatorlar asosida halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi modellarning dasturiy ta'minotlarining ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Raqamli televizion signallarni optimal qabul qilishni baholash va halaqitbardoshlikni oshirish uslublarini tadqiq qilish bo'yicha olingan natijalar asosida:

teleuzatish stansiyalarining ishonchli qamrov hududlarini sifatli radiosignal bilan ta'minlashda, Yerni relefi va ob - havoning o'zgarishini e'tiborga olib, optimal texnik parametrlarni (uzatgich quvvati, antenaning kuchaytirish koeffitsiyenti, uzatish antenasi o'rnatish balandligi) tanlash tamoyili hamda eksperimental o'lchovlarga asoslanib, optimal qabul qilishni baholash orqali raqamli televizion tizimining halaqitbardoshli qabuliga erishishda, QPSK va QAM demodulyatorlarning sifat ko'rsatkichli parametrlarini (spektri, yulduzli diagrammalari, signal sathi, signal/shovqin nisbati E_b/N_0 , uzatuvchi qurilmaning quvvati, kanal chastotasi va modulyatsiya turi) tanlash tamoyili "Toshkent radioteleuzatish markazi"ning axborot xizmatlari jarayonlariga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 8-sentyabrdagi 33-8/6164-son ma'lumotnomasi). Natijada DVB-T2 raqamli televideniye tizimida, raqamli televizion signallarning parametrlarini tadqiq etish va aniqlash vaqtini 3-4 barobarga qisqartirish, tizim samaradorligini 10-20% gacha oshirish mumkinligi ko'rsatilgan;

raqamli televizion tizimda Xemming, Rid-Solomon, Bouz-Choudxuri Xokvingem va LDPC kodlari asosida imitatsion model yaratilgan va koder, aloqa kanali, dekoderlarning parametrlarini rostdash orqali halaqitbardoshlikni oshirish uslubi hamda raqamli televizion tizimda Gauss, Rays va Reley kanallarini tanlash orqali halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi yangi Bouz-Choudxuri-Xokvingem dekoder algoritmi O'zbekiston Respublikasi "Elektromagnit moslashuv markazi" davlat unitar korxonasining axborot xizmatlari jarayonlariga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 8-sentyabrdagi 33-8/6164-son ma'lumotnomasi). Natijada DVB-T2 standartida yangi uslubdagi halaqitbardoshli kodlashlarni qo'llanilganda, "signal/shovqin" nisbatini yutug'i o'rtacha 3-5 dB oshishi va uzatish tezligini birinchi avlod standartiga nisbatan o'rtacha 30-45% oshirish mumkinli aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobsatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarni chop etishga tavsiya etilgan nashrlarida 13 ta maqola, jumladan 9 tasi

xorijiy, 4 tasi respublika jurnallarida nashr qilingan, hamda EHM uchun dasturiy mahsulotlar ro'yxatga olinganligi to'g'risida 11 ta guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning tuzulishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgilar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 116 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYA ISHINING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurligi asoslangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ishning maqsadi va vazifalari belgilab olingan hamda tadqiqot obyekti va predmeti aniqlangan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amalda joriy qilish holati, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya ishining birinchi bobida, **“O'zbekiston Respublikasida DVB-T2 standartidagi Yer usti raqamli televizion eshittirish holatining tahlili”** ushbu dissertatsiyada O'zbekiston Respublikasidagi Yer usti raqamli televizion eshittirish holatining tahlili, raqamli teleeshittirishning rivojlanishi va holatining tahlili, DVB-T2 standartini joriy qilish va tuzish, asosiy texnik xarakteristikalar, halaqitbardoshlikni ta'minlash yuzasidan amalga oshiriladigan texnik tadbirlar, shu bilan birga raqamli televizion signallarni optimal qabul uslublarining tahlili, tadqiqot o'tkazish uchun zarur natijalar, tahlillar keltirilgan.

Raqamli teleeshittirishni tuzish jarayonida raqamli teleuzatgich qurilmalarini optimal joylashtirish va aholini qamrov zonasini kengaytirish, ko'rsatilgan xizmatlar sifatini oshirish, halaqitbardoshlikni oshirish, televizion signallarni optimal qabul qilish va raqamli televideniye signallarining qamrovini oshirish uslublarini ta'minlash muammolari tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ushbu bobida Yer usti raqamli televizion eshittirish tizimida halaqitbardoshlikni oshirish uslublari va raqamli televizion signalni optimal qabul qilish tadqiqotning muhim vazifalaridan biri ekanligi aniqlangan.

Shuningdek, ushbu bobda raqamli televizion eshittirishning asosiy texnik xarakteristikalar, televizion kanallarni halaqitbardoshli va optimal qabul qilishni ta'minlash bo'yicha asosiy texnik tadbirlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, uzatkichni chiqish (chiqish quvvati, signal modulyatsiya turi, himoya oralig'i, belgilar tezligi) parametrlaridan tashqari, talab etilgan MER (modulyatsiya xatolik koeffitsiyenti) qiymat sathini ta'minlashda, tizimga teskari aloqani joriy qilish orqali tizim samaradorligini va halaqitbardoshligini oshirish mumkin bo'ladi. MERning belgilangan qiymati ta'minlanganda: ma'lumotlarning uzatish tezligini pasayishiga olib keladi, tizimning halaqitbardoshligi oshishi, himoya oralig'ini kengayishi va belgi tezligini oshishi orqali amalga oshadi. DVB-T2 standartida yangi tadqiqot natijalaridan biri, signal yulduzlarini aylantirilishi, tizim halaqitbardoshligini yaxshilaydi. Signal yulduzlarini aylantirilishi natijasida “signal/shovqin” nisbatini yutug'ini 5 detsibelgacha ta'minlash imkonini beradi.

Dissertatsiya ishida qo'yilgan maqsadga erishish uchun o'tkazilgan tadqiqotlar dissertatsiya doirasida ishlab chiqilgan tadqiqot metodologiyasi asosida olib borildi. Tadqiqot metodologiyasi Yer usti raqamli televizion eshittirish tizimida halaqitbardoshlikni oshirish uslublari tahlili, raqamli televideniye signallarining yetarli darajada qamrov zonasini oshirish va raqamli teleeshittirish tizimini takomillashtirish vazifalari, tizimning sifatli texnik ko'rsatkichlarini yaxshilash omillari, texnik muammolarni hal qilish uslublari, modellari va algoritmlarini ishlab chiqish, raqamli televizion signalni halaqitbardoshligini oshirish va optimal qabul qilishni baholash uchun dasturiy vositalarini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Dissertatsiyaning **“Raqamli televizion uzatgichning ishonchli qamrov zonasini va halaqitbardoshlikni belgilaydigan parametrlarga bo'lgan talablarni aniqlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida, DVB-T2 standartiga ta'sir etuvchi turli omillarni inobatga olgan holda raqamli televizion uzatgichning ishonchli qamrov zonasini hisoblash va tadqiqot ishlari keltirilgan. Nuqtada qamrov zonasini yoki ishonchli qabul qilish zonasini aniqlash uchun B.A. Vvedenskiy modelidan foydalanilgan holda ishonchli qabul qilish zona radiusi quyidagicha ifodalanadi (1):

$$r = \sqrt{\frac{2,18\sqrt{PG} \cdot h_1 \cdot h_2 \cdot K_r}{E \cdot \lambda}} \quad (1)$$

bu yerda P – uzatgich quvvati, kVt;

G – uzatish antennasining kuchaytirish koeffitsiyenti, dB;

h_1 – uzatish antennasining o'rnatish balandligi, m;

h_2 – qabul qilish antennasining o'rnatish balandligi, m;


K_r – Yer yuzasining egrilik koeffitsiyenti;

E – qabul qilish joyidagi maydon kuchlanganligi, dBmkV/m;

λ – to'lqin uzunligi, m.

(1) ifodaga muvofiq qamrab olish zonasining uzatish antennasining balandligiga bog'liqlik grafigi 1-rasmda keltirilgan.

Metr diapazonidagi va ayniqsa detsimetr diapazonidagi to'lqinlar Yer yuzasini deyarli tekis ko'rinishga ega bo'lgan holda, to'g'ri chiziqli tarqalganligi sababli, to'g'ridan-to'g'ri ko'rish zonasini oshirish, ya'ni antennani Yer yuzasidan ko'tarish orqali stansiyaning ta'sir etish radiusini sezilarli kengaytirish mumkin bo'ladi. Nurlanish quvvatini oshirish esa, to'g'ridan-to'g'ri ko'rish zonasidagi maydon kuchlanganligini deyarli kengaytirmagan holda oshiradi. Qamrab olish zonasining uzatish markazidan 10 km dan ortiq masofada B.A. Vvedenskiy formulasi bo'yicha baholash qiymatlari yaqin bo'lib, me'yoriy qiymatdan o'rtacha 1,8-2% oraliq'ida farq qiladi.



1-rasm. Qamrab olish zonasining uzatish antenasining balandligiga bog‘liqlik grafigi

Bundan tashqari, Raqamli televizion tizimda aholiga sifatli televizion signal dasturlarini yetkazib berishda belgilangan nuqtada qamrov yoki ishonchli qabul qilish zonasini tadqiq etish uchun B.A. Vvedenskiy modeli (2) yuqori samarali tadqiqot natijalarini beradi, ushbu (2) modelda ob-havoning sharoitlari inobatga olinmagan.

$$E_{\text{MK}} = \frac{2,18\sqrt{PG}}{\lambda r^2} h_1 h_2 K_r \quad (2)$$

B.A. Vvedenskiy modeliga qo‘shimcha $\xi_{\text{oho}k}$ -ob-havoning o‘zgarish koeffitsiyentini kiritib (yomg‘ir-0,98, qor-0,97 va sel-0,95) yangi takomillashgan B.A. Vvedenskiy modelini (3) yaratamiz:

$$E_{Yatemk} = \frac{2,18\sqrt{PG}}{\lambda r^2} h_1 h_2 K_r \xi_{\text{oho}k} \quad (3)$$

Bu yerda P – uzatgich quvvati, - 2 kVt;

G – uzatish antenasining kuchaytirish koeffitsiyenti, -12 dB;

h_1 – uzatish antenasining o‘rnatish balandligi, - 375 m;

h_2 – qabul qilish antenasining o‘rnatish balandligi, 10 m;


k_r – Yer yuzasining egrilik koeffitsiyenti, -1;

λ – to‘lqin uzunligi, c- $3 \cdot 10^8$ m/s., chastota F - 490 MHz;

Televizion kanal raqami – 23;

$\xi_{\text{oho}k}$ - Ob -havoning o‘zgarish koeffitsiyenti;


E_{Yatemk} -yangi takomillashtirilgan elektr maydon kuchlanganlik. Taklif etilgan yangi takomillashgan (3) model orqali ishonchli qabul qilish zonasini har xil ob-havo sharoitlarini inobatga olgan holda tadqiq etildi, tadqiqot natijalari 2-rasmda keltirilgan.



2- rasm. Elektr maydon kuchlanganligini qamrov zonasiga bog‘liqlik grafigi

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, yangi takomillashgan (3) model orqali ishonchli qabul qilish zonasini har xil ob-havo sharoitlarini inobatga olgan holda tadqiq etilgan natijalar, B.A. Vvedenskiy modeli (2) orqali aniqlangan tadqiqot natijalaridan o‘rtacha 4,2% farq qilishi aniqlandi, ishonchli qamrov zonasining masofasi har xil ob-havo sharoitida o‘rtacha 3-5 km gacha kamayishi mumkinligi tasdiqlandi hamda teleuzatish stansiyalarining ishonchli qamrov hududlarini sifatli signal bilan ta‘minlashda optimal texnik parametrlarni tanlash tamoyili ishlab chiqildi.


Dissertatsiyaning **“Yer usti raqamli televizion eshittirishda halaqitbardoshlikni oshirish uslubini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida, Yer usti raqamli televizion tizimda halaqitbardoshlikni oshirish uslublarini tahlillari keltirilgan. Hozirgi vaqtgacha raqamli teleeshittirish tizimlarida halaqitbardoshlikni oshirishni quyidagi uslublari mavjud bo‘lib, 3-rasmida keltirilgan.



3- rasm. Yer usti raqamli televizion tizimda halaqitbardoshlikni oshirish uslublari

Hozirgi davrda ko‘rib chiqilayotgan muammolarga oid olib borilgan tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, Yer usti raqamli teleeshittirish signallarini optimal halaqitbardoshli qabul qilishda, halaqitbardoshli kodlash va dekodlash uslublari, raqamli modulyatsiya rejimlari, raqamli televideniye signallarining yetarli darajada qamrov zonasini oshirish va raqamli teleeshittirish tizimini takomillashtirish, tizimning sifatli texnik ko‘rsatkichlarini yaxshilash, algoritmlari, uslublari tizimli ravishda va yetarli darajada o‘rganilmaganligi aniqlandi.


Shuningdek, raqamli televizion tizimda Bouz-Choudxuri-Xokvingem kod modeli yaratilgan hamda uning parametrlarini rostdash yordamida halaqitbardoshlikni oshirish uslubi takomillashtirilgan. 4-rasmda tadqiqot natijalari, ya’ni Bouz-Choudxuri-Xokvingem kodi uchun aniqlangan xatoliklar sonining xatoliklar ehtimolligiga bog‘liqligi (31,26) keltirilgan.



4-rasm. Bouz-Choudxuri-Xokvingem kodi uchun aniqlangan xatoliklar sonining (OY) xatoliklar ehtimolligiga (OX) bog‘liqligi grafigi (31,26)

Taklif etilgan uslubda, natijalar shuni ko‘rsatadiki, bunday BChX kod axborotni xatolikdan himoya qiladi, katta karralikdagi xatoliklarni to‘g‘rilaydi va aloqa kanaliga halaqitlarning ta’sir ehtimolligi qancha kichik bo‘lsa, ikkilik simvollarning qabul qilinishidagi xatolik shuncha kichik bo‘lishi aniqlandi.

Ushbu bobda, raqamli televizion tizimda halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi yangi Bouz-Choudxuri-Xokvingem dekodeer algoritmi ishlab chiqilgan. BChX dekodeer algoritmi uchun dastlabki ma’lumotlar quyidagilardir: Gauss (AWGN), Rays va Reley kanali, kanaldan qabul qilingan n - razryadli kodli blok $\vartheta(x)$, BChX kodi $g(x)$ polinomini hosil qiluvchi koeffitsiyentlar va $GF(2^m)$ maydoni belgilarining $(n=2^m-1)$ massivini ifodalovchi m -razryadli blok. Halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi yangi Bouz-Choudxuri-Xokvingem dekodeer algoritmi 5-rasmda keltirilgan bo‘lib, bu yerda e_{n-j} -xatolar polinomining j -chi koeffitsiyenti. $\vartheta(x)$ da har doim ham t xato bo‘lmasligini hisobga olib, BChX kodini dekodeer algoritmini bajarishni tezlashtirish uchun dekodeer kamroq murakkablik bilan amalga oshiriladigan holatlarni tanlash kerak bo‘ladi. Sindromli polinom $S(x)$ quyidagi formuladan hisoblanadi



5- rasm. Halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi yangi Bouz-Choudxuri-Xokvingem dekoder algoritmi

$$S(x) = R_{g(x)}[\vartheta(x)] = \sum_{j=0}^{m-1} S_j x^j \quad (4)$$

bu yerda S_j - ikkilik o'zgaruvchi (0,1). Polinomlarni bo'lish ikkilik koeffitsiyentlar orqali amalga oshiriladi. $x = \alpha^j, j = 1, \dots, 2t$ nuqtalardagi $S(x)$ sindromli polinomning qiymatlari S_j sindromlari deb ataladi:

$$S_j = S(\alpha^j) = \sum_{i=0}^{m-1} S_i x^{ij} \quad (5)$$

Dekodlashning keyingi bosqichi $e(x)$ xatolik polinomini hisoblash:

$$j = \begin{cases} 1, \text{ agar } \Lambda(\alpha^j) = 0 \\ 0, \text{ b aks holda} \end{cases} \quad (6)$$

$\Lambda(x)$ polinom qiymatlari $GF(2^m)$ maydonning barcha elementlari uchun hisoblanadi. BChX kodini dekodlashning oxirgi bosqichi - xatolik polinomi va kodli so'zni ikki moduli bo'yicha qo'shish orqali xatolarni to'g'rilashdir.

$$\vartheta'(x) = \vartheta(x) \oplus e(x) \quad (7)$$

Bu yerda (7) dekodlash bosqichi tugaydi va yana aloqa kanalini tanlash va o'rnatish orqali, signallarni halaqitbardoshli qabul qilinishini ta'minlash uchun qabul qilingan ikkilik signalni dekodlash mumkin bo'ladi. BChX kodini yangi uslubdagi ishlab chiqilgan dekodlash algoritmining joriy etilishi bilan raqamli televideniye signallarini optimal qabul qilishning halaqitbardoshligi 15-25% gacha ortishi tasdiqlandi.


Dissertatsiyaning **“Raqamli televizion signalni optimal qabul qilishni baholashda eksperimental tadqiqotlar”** deb nomlangan to'rtinchi bobida, halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi QPSK, QAM demodulyatorlarning va real vaqt masshtabida raqamli televizion qabul qiluvchining kirishida quvvat satxini aniqlovchi model va dasturiy ta'minotlar ishlab chiqildi. Modellash natijalari shuni ko'rsatdiki, E_b/N_0 35 db ga teng bo'lganda xatolik bilan qabul qilingan bitlar sonining va bitli xatolik ehtimolligining E_b/N_0 ga bog'liqliliklari nolgacha kamayishi va optimal halaqitbardoshlik darajasini oshirish, modulyatsiya yulduzlar parametriga bog'liqligi aniqlandi.

Shuningdek, raqamli teleeshittirish signallarining sifat ko'rsatkichlarini eksperimental tadqiqotlari keltirilgan. “EMMM” DUK bilan hamkorlikda dissertatsiya ilmiy ishi bo'yicha Toshkent shahri, Toshkent viloyati bo'yicha eksperimental ilmiy tadqiqot ishlari o'tkazildi.

Ilmiy tadqiqot ishida, Yer usti raqamli televideniye tizimini tashkil etishda raqamli signalni sifat ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi omillardan biri bo'lgan halaqitbardoshlikka urg'u berildi. Olib borilgan eksperimental tadqiqotlar natijalari, ya'ni: signal sathi va modulyatsiya xatoligi MER larni chastotaga bog'liqligi 6a,b-rasmda keltirilgan. Aloqa kanallari orqali yo'qotilayotgan foydali ma'lumotlarning bitlar yig'indisidan iborat oqimlarini halaqitbardoshligini ta'minlashda qo'llaniladigan kodlash uslublari va ularning samarali jihatlari tadqiq etildi.


Ushbu bobda spektr analizator majmuasi (Aaronia Spectran V6) yordamida real vaqt masshtabida 4 ta nuqta obyektlarida eksperimental tadqiqotlar (Islom Krimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti hududida, Yangi yo'l

posyolkasida, Chernyayevka (G'isht ko'prik) posyolkasida va Sirg'ali tumanida) olib borildi.




6-rasm. a) signal sathi, b) modulyatsiya xatoligi MER larni chastotaga bog'liqlik diagrammasi

Eksperimental tadqiqotlar 7-rasmga keltirilgan DVB-T2 standart tadqiqot tizim sxemasi yordamida olib borildi.



7- rasm. DVB-T2 standart tadqiqot tizim sxemasi

Yer usti raqamli eshittirish qabul qilgichining kirishidagi quvvat sathining ($P_{\min}$, $P_{o'rt}$, $P_{\max}$) chastotaga bog'liqliklari 8a,b -rasmga keltirilgan.



8-rasm. DVB-T2 Yer usti raqamli eshittirish qabul qilgichining kirishidagi quvvat sathining ($P_{\min}$, $P_{o'rt}$, $P_{\max}$) chastotaga bog'liqlik diagrammalari:

a) Chernyayevka (G'isht ko'prik) posyolkasi, b) Yangi yo'l posyolkasi

Eksperimental o'lovlar va tadqiqotlarda "Yoshlar", "O'zbekiston" va "Toshkent" dasturiy kanallar obyektiv kuzatildi, natijalarga ko'ra, 4 ta nuqta obyektlaridagi o'lovchan parametrlar, ya'ni raqamli qabul qilgichni kirishidagi quvvat sathi berilgan standartdan o'rtacha 0,78-0,91 marotabaga yoki 11-22% farq qilganligi aniqlandi. Raqamli televizion signalni halaqitbardoshligini oshirish va optimal qabul qilishni baholash bo'yicha bajarilgan amaliy tadqiqotlar natijasi nazariy hisob-kitoblar, xulosalar, texnik o'lovlarining nazariy natijalari bilan mutanosibli orqali tasdiqlandi hamda tavsiyalar ishlab chiqildi.

XULOSA

"DVB-T2 standartiga ega raqamli televizion signallarni optimal qabul qilishni baholash va halaqitbardoshlikni oshirish uslublarini tadqiq etish" mavzusidagi dissertatsiya bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Halaqitbardoshli kodlar asosida ishlab chiqilgan model va dasturiy ta'minotlar orqali Yer usti raqamli teleeshittirish tizimini sifatli tashkil etishda qabul qilinayotgan raqamli televizion signalni sifat ko'rsatkichlarini belgilab beruvchi omillardan biri bo'lgan optimal halaqitbardoshlikni oshirish uslubi takomillashtirildi.

2. Qamrab olish zonasining uzatish markazidan 10 km dan ortiq masofada B.A.Vvedenskiy ifodasi bo'yicha baholash qiymatlari yaqin bo'lib, me'yoriy qiymatdan o'rtacha 1,8-2% oralig'ida farq qilishi asoslab berildi.

3. DVB-T va DVB-T2 standartlarida bir xil BER qiymatlarga erishilganda, DVB-T2 standartida yangi uslubdagi halaqitbardoshli kodlashlarni: BChX va LDPC qo'llanilganda, "signal/shovqin" nisbatini yutug'i o'rtacha 3-5 dB tashkil etdi.

4. DVB-T va DVB-T2 standartlarida "signal/shovqin" nisbati bir xil bo'lganda, DVB-T2 standartida uzatish tezligini birinchi avlod standartiga nisbatan o'rtacha 30-45% oshirish mumkinligi aniqlandi.

5. Raqamli televizion tizimda halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi yangi Bouz-Choudxuri-Xokvingem dekode algoritmi ishlab chiqildi. Halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi yangi uslubdagi ishlab chiqilgan dekode algoritmining joriy etilishi bilan raqamli televideniye signallarini optimal qabul qilishning halaqitbardoshligi 15-25% gacha ortdi.

6. Halaqitbardoshlikni oshirish imkoniyatini beruvchi QPSK va QAM demodulyatorning model va dasturiy ta'minotlari asosida olingan natijalar raqamli televideniye tizimida, raqamli televizion signallarning parametrlarini tadqiq etish va aniqlash vaqtini 3-4 barobarga qisqartirish, tizim samaradorligini 10-20% gacha oshirish imkonini berdi.

7. Eksperimental o'lovchan parametrlar, ya'ni raqamli qabul qilgichni kirishidagi quvvat sathi berilgan me'yoriy standartdan o'rtacha 0,78-0,91 marotabaga yoki 11-22% farq qilingani aniqlandi hamda optimal halaqitbardoshli qabul qilishni ta'minlashda, sifatli texnik ko'rsatkichlarni yaxshilash uchun amaliy tavsiyalar berildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.13/30.12.2019.Т.07.02 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

ЖАББОРОВ АЛИБЕК БОТИРКУЛ УГЛИ

**ИССЛЕДОВАНИЕ МЕТОДОВ ПОВЫШЕНИЯ
ПОМЕХОУСТОЙЧИВОСТИ И ОЦЕНКА ОПТИМАЛЬНОГО ПРИЕМА
ЦИФРОВЫХ ТЕЛЕВИЗИОННЫХ СИГНАЛОВ СТАНДАРТА DVB-T2**

**05.04.02 – Системы и устройства радиотехники, радионавигации, радиолокации и
телевидения. Мобильные, волоконно-оптические системы связи**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № B2019.4.PhD/T1446.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете им. И.Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета (www.tuit.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Ярмухамедов Алишер Агбарович
кандидант технических наук, доцент

Официальные оппоненты:

Сиддилов Илхомжон Хакимович
доктор технических наук, профессор

Носиров Хабибулло Хикматилло угли
доктор философии по техническим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация:

**Военный институт информационно-коммуникационных технологий и связи
Министерства обороны Республики Узбекистан**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2024 г. в ___ часов на заседании Научного совета DSc.13/30.12.2019.T.07.02 при Ташкентском университете информационных технологий. (Адрес: 100084, г.Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.:(99871) 238-64-43; факс:(99871) 238-65-52; e-mail: tuit@tuit.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми (регистрационный номер № _____). Адрес: 100084, г. Ташкент, ул. Амира Темура, 108. Тел.: (99871) 238-65-44.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2024 г.
(протокол реестра №___ от «___» _____ 2024 г.).

Б.Ш. Махкамов

Председатель научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук,
профессор

М.С. Саиткамолов

Ученый секретарь научного совета по
присуждению учёных степеней,
доктор экономических наук, доцент

Д.Я. Иргашева

Председатель научного семинара при
Научном совете по присуждению
учёных степеней, доктор технических
наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам)

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире особое значение придается вопросам обеспечения методов повышения помехоустойчивости наземного цифрового телевизионного вещания при оптимальном приеме сигналов, увеличения зоны покрытия сигналов цифрового телевидения и совершенствования системы цифрового телевизионного вещания, цифровой обработки и улучшения качественных технических показателей системы. В настоящее время в густонаселенных районах в связи с наличием многоэтажных зданий, влиянием природных и искусственных помех и разнообразием рельефа Земли возрастает потребность в обеспечении потребителей качественными телевизионными сигналами, а это свидетельствует о возрастающем спросе на улучшение качественной помехоустойчивой телевизионной системы. В связи с этим в ведущих странах мира, таких как США, Германия, Швеция, Великобритания, Австрия, Канада, Китай, Япония, Индия, Южная Корея и Российская Федерация, особое внимание уделяется вопросам обеспечения оптимального приема сигналов наземного цифрового телевизионного вещания, методам повышения помехоустойчивости систем, а также создания системы с качественными техническими показателями.

В мире проводится ряд научных исследований, направленных на обеспечение методов повышения помехоустойчивости при оптимальном приеме сигналов цифрового телевидения, увеличение зоны покрытия сигналов цифрового телевидения, цифровую обработку, улучшение качественных технических показателей системы, разработку методов, алгоритмов, моделей и программных средств. Большая часть научных исследований направлена на совершенствование методов помехоустойчивого кодирования, модуляции, демодуляции при оптимальном приеме сигналов наземного цифрового телерадиовещания. В связи с этим для решения многих проблем, таких как оптимальном приеме сигналов наземного цифрового телевидения, обеспечение методов повышения помехоустойчивости системы, увеличение зоны покрытия сигналов цифрового телевидения и разработка алгоритмов, моделей, программных средств и создание оптимальной помехоустойчивой системы уделяется особое внимание.

В нашей республике принимаются широкомасштабные меры по обеспечению методов повышения помехоустойчивости наземного цифрового телевизионного вещания при оптимальном приеме сигналов, увеличению зоны покрытия сигналов цифрового телевидения. В Стратегии Цифровой Узбекистан - 2030 «предусмотрена передача телевизионного сигнала потребителям, наземное телевизионное вещание, кабельное телевидение, совершенствование цифрового вещания с полным охватом всех видов услуг IP-телевидения, сетей передачи информации, мобильной связи, телерадиовещания с использованием Интернет-технологий» является одной из стратегических целей и приоритетных направлений цифрового развития.

Одной из важных задач в достижении этих целей является оптимальный прием телевизионных сигналов, увеличения зоны покрытия, совершенствование методов повышения помехоустойчивости телевизионных сигналов.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит выполнению задач, предусмотренных в ряде указов и постановлений Президента Республики Узбекистан, №-УП-6079 об утверждении Стратегии «Цифровой Узбекистан - 2030» от 5 октября 2020 года и мер по ее эффективной реализации, в Постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан № 29/789 «О дальнейших мерах по переходу на цифровое телевидение и прекращению наземного аналогового телевидения» от 24 июля 2017 года, в Постановлениях Президента № ПП-3245 «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы управления проектами в сфере информационно-коммуникационных технологий» от 29 августа 2017 года, № ПП-4699 «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства» от 28 апреля 2020 года, № ПП-60 «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» от 28 января 2022 года, а также в других нормативных документах, принятых в этой области в последние годы в Республике.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики Узбекистан. Диссертация выполнена в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики Узбекистан IV. «Развитие информатизации и информационно-коммуникационных технологий».

Степень изученности проблемы. В области телекоммуникаций и систем цифровой связи проводятся обширные исследования по оптимальному помехоустойчивому приему сигналов наземного цифрового телевизионного вещания, поиску путей повышения помехоустойчивости системы, увеличения зоны покрытия сигналов цифрового ТВ, разработки алгоритмов, моделей, программных средств для этой системы и реализации оптимальной помехоустойчивой системы. По данному исследованию были изучены статьи, опубликованные в последние годы в научных журналах, включенных в IEEE Xplore и Scopus, входящих в базы данных Web of Science, Elsevier, Springer, Association for Computing Machinery, IEEE Xplore, Cyberleninka.

Ряд зарубежных ученых в этой области проводили научные исследования, в том числе, В. А. Анжина, Николайчук Н.В., С. В. Дворников, Е.В. Лебеда, Чан Ван Нгия, Г. В. Куликов, Андрей Михайлов, А.С. Овсянникова, А.А. Леошко и другие.

Также в этом направлении в нашей республике проводили научные исследования М.М.Мухиддинов, А.М.Назаров, Х.Х.Мадаминов, А.Ш.Шахобиддинов, М.А. Джабборова, Б.К. Абидов, И.А.Гаврилов, Э.Б.Ташманов, Т.Г.Рахимов, Х.С.Соатов и другие ученые и исследователи.

Результаты анализа рассмотренных в диссертации проблем показали, что при оптимальном приеме сигналов наземного цифрового телевизионного вещания используемые помехоустойчивые методы кодирования и декодирования, режимы цифровой модуляции и демодуляции, увеличение зоны покрытия сигналов цифрового телевидения и совершенствования системы цифрового телевизионного вещания, улучшения качества технических показателей системы, алгоритмов, методов не изучены системно и достаточно.

Связь темы диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, где выполнена диссертация. Диссертационное исследование выполнено в рамках международного проекта плана научных исследований Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммада аль-Хорезми по теме 609715-EER-1-2019-1-UZ-EPPKA2-SBHE-JP 609715-EER-1-2019-1-UZ-EPPKA2-SBHE-JP «SPACE.COM» «Новая учебная программа по космическим системам и технике связи (New study program in space systems and communications engineering)» (2019-2023 гг.).

